

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.91.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

SHAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TOSHMANOV IKROM JUMANOVICH

**RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BIOLOGIYADAN LABORATORIYA
MASHG'ULOTLARI DASTURIY TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH
(7-SINF BIOLOGIYA FANI MISOLIDA)**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Guliston – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical
sciences**

Toshmanov Ikrom Jumanovich

Raqamli ta'lim muhitida biologiyadan laboratoriya mashg'ulotlari dasturiy ta'minotini takomillashtirish (7-sinf biologiya fani misolida)..... 3

Тошманов Икром Джуманович

Совершенствование программного обеспечения лабораторных занятий по биологии в цифровой образовательной среде (на примере биологии 7 класса)..... 21

Toshmanov Ikrom Jumanovich

Improving the software for laboratory classes in biology in a digital educational environment (using 7th grade biology as an example)..... 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 45

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.91.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

SHAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TOSHMANOV IKROM JUMANOVICH

**RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BIOLOGIYADAN LABORATORIYA
MASHG'ULOTLARI DASTURIY TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH
(7-SINF BIOLOGIYA FANI MISOLIDA)**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (tabiiy fanlar)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Guliston – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PHD/Ped4568 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Shahrisabz davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.guldu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Ergasheva Gulruxsor Surxonidinovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar: Ergasheva Malohat Tursunovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Xushvaktova Xusnobod Soliyevna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot: Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Guliston davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.B.91.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil «15» 10 soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 120100, Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze. Tel.: (+99867) 225-39-25, faks: (+99867) 225-39-25; e-mail: gluinfo.bio@mail.uz).

Dissertatsiya bilan Guliston davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (93-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 120100, Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze. Tel.: (+99867) 225-39-25.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «28» 09 kuni tarqatildi.
(2025-yil «28» 09 dagi № 3 -raqamli reyestr bayonnomasi).




A. Pazilov
Ilmiy daraja beruvchi
ilmiy kengash raisi,
b.f.d., professor


F.P. Gaibnazarova
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi,
b.f.d. (PhD) dotsent


J.X. Karshibayev
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, b.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Zamonaviy jamiyat rivojining yuqori salohiyati, inson hayotida raqamli texnologiyalarning jadal o‘rib borishi, raqamli ta’lim resurslariga bo‘lgan ehtiyojning ortishi ta’lim tizimida yosh avlodning XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirish asosida biologik savodxonligini o‘rttirishni talab etadi. Ushbu o‘zgarishlar samarasi sifatida raqamli texnologiyalar va kontentlardan tanqidiy foydalanish, ijodiy faoliyat tajribasini amaliyot bilan uyg‘unlashtirish, ochiq ta’lim resurslarini yaratish, ta’lim jarayoni immersivligini oshirish orqali biologiyadan laboratoriya mashg‘ulotlari dasturiy ta’minotini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jahonda o‘quvchilarning raqamli ko‘nikmalarini shakllantirish, AKT kompetentligini va axborot-media savodxonligini rivojlantirish, biologiya ta’limida raqamli pedagogika tamoyillari asosida dasturiy faoliyatni tashkil etish sohasida keng qamrovli izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, o‘quvchilar ongida dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasini shakllantirish, raqamli resurslar imkoniyatidan laboratoriya mashg‘ulotlarida keng foydalanish, biologik obyektlarni ilmiy o‘rganishning metodik imkoniyatlarini takomillashtirish, o‘quvchilarning biologik obyektlarning ichki tuzilishini immersiv texnologiyalar vositasida o‘rganish imkoniyatlarini o‘rttirishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda ta’lim tizimini raqamlashtirish, “yoshlar orasida axborot texnologiyalarini ommalashtirish, shuningdek, aholining barcha qatlamlari orasida raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish”¹, kimyo va biologiya fanlarini rivojlantirish, ushbu yo‘nalishlarda ta’lim sifati va ilm-fan natijadorligini oshirish sohasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. “Shu bilan birga, umumta’lim maktablaridagi kimyo va biologiya fanlarini o‘qitish sifati bugungi davr talablariga javob bermasligini, o‘qitish metodologiyasi va laboratoriyalar ma’nan eskirganligini”², zamonaviy laboratoriyalar va raqamli texnologiya vositalari va resurslari bilan ta’minlash zarurati mavjudligini ta’kidlash joiz. Shu bois, maktab biologiya ta’limi samaradorligini raqamli resurslar: flash-animatsiyalar, interaktiv rasm va sxemalar, videofilmlar va illyustratsiyalar vositasida yangilash va dasturiy ta’minotini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining ta’limga bo‘lgan zamonaviy yondashuvi 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-sonli “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” farmoni, 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-son “Biologiya va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifati va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-son “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifati va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori: <https://lex.uz/docs/-4945470>

tadbirlari to'g'risida" qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijro mexanizmlarini takomillashtirishga mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innotvasion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda ta'lim tizimiga raqamli texnologiyalarini joriy etish, dasturiy vositalarni takomillashtirish sohasida A.A.Abduqodirov, B.Z.To'rayev, U.Sh.Begimqulov; biologiya o'qitish metodikasi sohasida darslarni pedagogik va axborot texnologiyalari, raqamli vositalar asosida tashkillashtirishning metodik imkoniyatlarini kengaytirish sohasida: J.O.Tolipova, O.Mavlonov, I.Azimov, G.S.Ergasheva, U.B.Bahodirova, M.N.Ibodova, S.Najimova, N.J.Toshmanov, L.M.Qaraxanova, Sh.B.Xasanovlar tomonidan tadqiq etilgan.

MDH davlatlarida raqamli ta'lim muhitida biologiya ta'limi samardorligini orttirish imkoniyatlari: A.V.Aldusin, T.M.Beresneva, N.B.Borisova, E.A.Sindeyeva, E.E.Petrovlar tomonidan o'rganilgan.

Xorijlik olimlar tomonidan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etishning zamonaviy shakllari va vositalari, virtual laboratoriyalardan foydalanish imkoniyatlariga doir tadqiqotlar: K.A.Gamage, C.L.Craig, C.G.Friebs, V.Zafeiropoulos, D.Kalles, M.Irsyad, J.Keil, P.H.Myburgh kabilar tomonidan amalga oshirilgan. Biroq, raqamli ta'lim muhitida 7-sinf biologiya fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini takomillashtirish muammosi alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

Tadqiqotning maqsadi: raqamli ta'lim muhitida 7-sinf biologiya fani laboratoriya mashg'ulotlarining dasturiy ta'minotini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

7-sinf biologiya fanidan laboratoriya mashg'ulotlarining dasturiy ta'minotini rivojlantirishning didaktik modelini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish;

biologiyadan laboratoriya mashg'ulotlari dasturiy ta'minotini raqamli laboratoriya effektlari asosida takomillashtirish;

raqamli ta'lim muhitida biologiyadan laboratoriya mashg'ulotlari dasturiy ta'minotining didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

raqamli ta'lim muhitida biologiyadan laboratoriya mashg'ulotlari dasturiy ta'minotini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish.

Tadqiqot obyekti: 7-sinf biologiya fanidan laboratoriya mashg'ulotlari dasturiy ta'minotini takomillashtirish jarayoni bo'lib, pedagogik tajriba-sinov bazasi sifatida Toshkent shahar Uchtepa tumani MMTB tasarrufidagi 203-maktab, Jizzax viloyati Baxmal tumani MMTB tasarrufidagi 44-maktab, Qahqadaryo viloyati Yakkabog' tumani MMTB tasarrufidagi 16-maktab, Qashqadaryo viloyati

Shaxrisabz shahridagi ixtisoslashtirilgan maktabidan 240 nafar o‘quvchilar ishtirok etdi.

Tadqiqot predmeti: raqamli ta’lim muhitida biologiyadan laboratoriya mashg‘ulotlari dasturiy ta’minotini takomillashtirish metodlari, usullari va texnologiyalari.

Tadqiqotning usullari psixologik-pedagogik tahlil, tadqiqot muammolari bo‘yicha o‘quv-uslubiy, ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili; me‘yoriy xujjatlarni o‘rganish, an‘anaviy va innovatsion tajribalarni o‘rganish hamda tizimlashtirish; pedagogik loyihalashtirish; pedagogik modellashtirish; empirik; anketa; suhbat; test usuli; talabalarni o‘quv va ijodiy faoliyati mahsulining tahlili; natijalarni grafik tasvirlash; tajriba-sinov; diagnostik va matematik-statistik tahlil.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

7-sinf biologiya fanidan laboratoriya mashg‘ulotlarining dasturiy ta’minotini rivojlantirishning didaktik modeli og‘zaki, yozma va vizual bilimlarini manipulyativ raqamlashtirish, kollobarativ rivojlantirishga yo‘naltirilgan murakkab biologik tuzilmalarni vizuallashtirish asosida takomillashtirilgan;

biologiyadan laboratoriya mashg‘ulotlari dasturiy ta’minotini takomillashtirish samaradorligi raqamli laboratoriya effektlari Quiz, Veb-quest vositalari yordamida kutilgan va haqiqiy natijalarni baholash va refleksiya jarayonining obyektivligini ta’limiy platformalar vositasida aniqlash asosida takomillashtirilgan.

raqamli ta’lim muhitida biologiyadan laboratoriya mashg‘ulotlari dasturiy ta’minotining didaktik imkoniyatlari virtual makondagi pedagogik faoliyat mobilligi va nazariy bilimlarni amaliy xarakterli traektoriyasiga individuallashtirilgan vektorli yo‘naltirish natijalari avtonomligini faktorli tahlil qilish asosida aniqlashtirilgan;

raqamli ta’lim muhitida biologiyadan laboratoriya mashg‘ulotlari dasturiy ta’minotini rivojlantirish metodikasi individuallashtirilgan mobil ilovalar, og‘zaki va vizual ko‘rsatmalar va ta’lim subyektlari ijodiy hamkorligini intensiv laboratoriyaviy modellashtirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

raqamli ta’lim muhitida biologiyadan laboratoriya mashg‘ulotlari dasturiy ta’minotini takomillashtirish maqsadida dasturiy ta’minot: “7-sinf o‘quvchilari uchun Zoologiya fanidan laboratoriya mashg‘ulotlari uchun elektron o‘quv qo‘llanma” (DGU № 37594) yaratilgan;

biologiya o‘qituvchilarining laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazish bo‘yicha metodik tayyorgarliklarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan “Biologiya o‘qitish metodikasi” nomli o‘quv qo‘llanma yaratilgan (2023-yil 29-sentabr, 438-sonli qaror, 438506-sonli guvohnoma).

Tadqiqot natijalarini ishonchliligi. Tadqiqotni amaliy metodik asoslanganligi, foydalanilgan tadqiqot usullarining o‘zaro to‘ldirilganligi, predmetning adekvatligi, maqsad va vazifalar, xulosalarning dalillarga asoslanganligi va mantiqiy jihatdan o‘zaro muvofiqligi, olingan natijalarning muhokamasi orqali ta’minlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarini ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati raqamli ta'lim muhitida biologiyadan laboratoriya mashg'ulotlari dasturiy ta'minotini pedagogik, psixologik va metodik imkoniyatlari raqamli laboratoriyalar vositasida takomillashtirilganligi; o'quvchilarning amaliy faoliyat tajribalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan metodologik yondashuvlar hamda pedagogik shart-sharoitlar optimallashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati quyidagilar bilan izohlanadi: olingan natijalar respublika maktab ta'limi biologiya darslarida o'quvchilarning raqamli ta'lim muhitida biologiyadan laboratoriya mashg'ulotlari dasturiy ta'minotini fanlararo integratsiyalash asosida o'quvchilarning fanga oid, tadqiqotchilik, metapredmetli kompetensiyalarini shakllantirishga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan; tadqiqot doirasida 7-sinf biologiyadan laboratoriya mashg'ulotlari dasturiy ta'minoti mustahkamlangan va biologik ta'lim jarayonida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

7-sinf biologiya fanidan laboratoriya mashg'ulotlarining dasturiy ta'minotini rivojlantirishning didaktik modeli og'zaki, yozma va vizual bilimlarini manipulyativ raqamlashtirish, kollobarativ rivojlantirishga yo'naltirilgan murakkab biologik tuzilmalarni vizuallashtirish asosida takomillashtirilgan doir tavsiyalari "Biologiya o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan va amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-sentyabrdagi 438-sonli qarori, 438506-sonli guvohnoma). Natijada, raqamli ta'lim muhitida maktab biologiya ta'limi laboratoriya mashg'ulotlari dasturiy ta'minoti samaradorligi oshgan;

biologiyadan laboratoriya mashg'ulotlari dasturiy ta'minotini takomillashtirish samaradorligi raqamli laboratoriya effektlari Quiz, Veb-quest vositalari yordamida kutilgan va haqiqiy natijalarni baholash va refleksiya jarayonining obyektivligini ta'limiy platformalar vositasida aniqlashga doir tavsiyalari Biologiya o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan va amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-sentabrdagi 438-sonli qarori, 438506-sonli guvohnoma). Natijada, o'quvchilarning raqamli ta'lim muhitida raqamli vositlar bilan ishlash motivatsiyasi oshgan;

raqamli ta'lim muhitida biologiyadan laboratoriya mashg'ulotlari dasturiy ta'minotining didaktik imkoniyatlari virtual makondagi pedagogik faoliyat mobilligi va nazariy bilimlarni amaliy xarakterli traektoriyasiga individuallashtirilgan vektorli yo'naltirish natijalari avtonomligini faktorli tahlil qilish asosida aniqlashtirishga doir takliflari I-OT-2019-8-raqamli "Umumiy o'rta ta'lim maktablarining tabiiy fanlari (fizika va biologiya) uchun yangi avlod elektron o'quv-metodik qo'llanmalarini yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish" (2019-2021-yy.) mavzusidagi innovatsion loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (Tarbiya pedagogikasi milliy institutining 2024-yil 2-dekabrdagi 04/22-8102-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, maktabda biologiyadan laboratoriya mashg'ulotlarida o'quvchilarning amaliy faoliyat tajribasi orttirilgan, raqamli ta'lim muhitida integratsiyalash dinamikligi ta'minlangan;

raqamli ta'lim muhitida biologiyadan laboratoriya mashg'ulotlari dasturiy ta'minotini rivojlantirish metodikasi individuallashtirish mobil ilovalar, og'zaki va vizual ko'rsatmalar va ta'lim subyektlari ijodiy hamkorligini intensiv laboratoriyaviy modellashtirish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar "7-sinf o'quvchilari uchun Zoologiya fanidan laboratoriya mashg'ulotlari uchun elektron o'quv qo'llanma" mazmuniga singdirilgan. Natijada, laboratoriya mashg'ulotlarida o'quvchilarning metapredmetli va tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya tadqiqoti natijalari 4 ta xalqaro anjumanda va 1 ta respublika anjumanlarida muhokamalardan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 16 ta ilmiy ish, shulardan 1 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shundan, 3 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 131 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan; muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi yoritilgan; obykti, predmeti, metodlari, maqsad va vazifalari aniqlangan; shuningdek, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilingani, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Raqamli ta'lim muhitida biologiyadan laboratoriya mashg'ulotlari dasturiy ta'minotini takomillashtirishning tashkiliy pedagogic aspektlari**" deb nomlangan birinchi bobida biologiyadan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etishning pedagogik-psixologik jihatlari, laboratoriya mashg'ulotlari mazmuni va ta'lim-tarbiyaviy vazifalari, moddiy texnik bazasi va raqamli resurlardan foydalanishning ustuvor yo'nalishlari, pedagogik imkoniyatlari tadqiq etilgan.

Maktab ta'limini isloh qilish muammosi laboratoriya mashg'ulotlarini zamonaviy dasturiy ta'minotini takomillashtirish, raqamli texnologiyalarini joriy etish orqali o'quvchilarning amaliy qobiliyatlarini rivojlantirish, tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirish, moddiy-texnik bazasini takomillashtirishni taqozo etadi. Ayni vaqtda raqamli laboratoriyalar tabiiy-ilmiy laboratoriyalarning yangi avlodi sifatida XXI asr maktablari uchun dolzarb sanaladi. Raqamli laboratoriyalar ta'lim oluvchilarning bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, kreativ tafakkurini rivojlantirish, o'quv materiallarini amaliy faoliyat tajribalari bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi va ozida bir qancha xususiyatlarni aks ettiradi (1-rasmga qarang).



Interaktivlik

Zamonaviy laboratoriya mashg'ulotlari talabalarning faol ishtirokini ta'minlaydi. Ular nafaqat kuzatuvchi, balki tajriba jarayonining to'laqonli ishtirokchisiga aylanadi



Texnologik integratsiya

Raqamli mikroskoplar, 3D modellashtirish dasturlari va virtual laboratoriyalar kabi zamonaviy texnologiyalar tadqiqot imkoniyatlarini kengaytiradi



Amaliy yo'naltirilganlik

Mashg'ulotlar real hayotiy muammolar va vaziyatlarga asoslangan bo'lib, nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi.

1-rasm. Zamonaviy laboratoriya mashg'ulotlarining xususiyatlari

Zamonaviy umumta'lim tizimida biologiyadan laboratoriya mashg'ulotlari dasturiy ta'minotining didaktik imkoniyatlari virtual makondagi pedagogik faoliyat mobilligi va nazariy bilimlarni amaliy xarakterli traektoriyasiga individuallashtirishni taqozo etadi. Biologiya fani doirasida, darslarda raqamli laboratoriyalardan foydalanish o'zining samaradorligi va universalligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda ta'limni axborotlashtirish, raqamlashtirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish sohasida A.Abduqodirov, U.Begimqulov; biologiya ta'limida interaktiv dasturiy vositalardan foydalanish G.S.Ergasheva, virtuellashtirish va laboratoriya mashg'ulotlari samaradorligini orttirish sohasida U.Bahodirova, S.Najimova, N.Toshmanovlar tadqiqot olib borgan.

Raqamli laboratoriyalardan foydalanish metodikasi T.Sh.Alixonova, X.A.Alijanova, T.B.Alekseeva, V.N.Davidov, V.S.Kornilovlar tomonidan tadqiq etilgan.

Laboratoriya mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil etish biologiyadan o'quvchilarga nazariy materiallarni mustahkam o'zlashtirish bilan birga, raqamli laboratoriya effektlari Quiz, Veb-quest vositalari yordamida kutilgan va haqiqiy natijalarni baholash va refleksiya jarayonining obyektivligini ta'limiy platformalar vositasida aniqlash imkonini beradi. Laboratoriya mashg'ulotlari nazariy va amaliyotni uyg'unlashtirib, to'plangan nazariy bilimlardan amaliy ko'nikmalarga o'tishni va ularni amaliy muammolarni hal qilishda qo'llashni ko'rsatadi.

Laboratoriya mashg'ulotlarini rejalashtirish: 1. Maqsad va vazifalarni belgilash. 2. Materiallar va jihozlarni tayyorlash. 3. Xavfsizlik choralarini ishlab chiqish. 4. Baholash mezonlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Laboratoriya mashg'ulotlari: 1) kirish qism; 2) nazariy qism; 3) amaliy qism; 4) yakuniy qismlardan tashkil topadi.

Zamonaviy sharoitda raqamli ta'lim muhitida biologiyadan laboratoriya mashg'ulotlari dasturiy ta'minotini rivojlantirish metodikasi individuallashtirish mobil ilovalar, og'zaki va vizual ko'rsatmalar va ta'lim subyektlari ijodiy hamkorligini intensiv laboratoriyaviy modellashtirish (3D modellashtirish, virtual disseksiya) vositasida amalga oshiriladi. 3D modellashtirish – murakkab biologik tuzilmalarni vizuallashtirish va o'rganish imkonini beradi. Masalan, hayvon hujayralar, to'qimalar va organlarning uch o'lchovli modellarini yaratish orqali o'quvchilar ularning tuzilishini chuqurroq tushunishlari mumkin. Virtual disseksiya – hayvonlarni kompyuter yordamida “yorib ko'rish” imkonini beradi. Bu etik muammolarni hal qilish va qimmatbaho resurslarni tejash imkonini beradi, shu bilan birga o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Laboratoriya natijalari tahlili va xulosalar chiqarish uchun:

Ma'lumotlarni to'plash. Tajriba natijalarini aniq va tizimli ravishda qayd etish. Raqamli va sifat ko'rsatkichlarini alohida ajratib olish.

Statistik tahlil. To'plangan ma'lumotlarni statistik usullar yordamida qayta ishlash. O'rtacha qiymatlar, standart og'ishlar va boshqa ko'rsatkichlarni hisoblash.

Vizuallashtirish. Natijalarni grafiklar, diagrammalar va jadvallar ko'rinishida tasvirlash. Bu ma'lumotlarni tushunish va taqdim etishni osonlashtiradi.


Interpretatsiyalash. Olingan natijalarni nazariy bilimlar asosida tahlil qilish va tushuntirish. Kutilgan va haqiqiy natijalarni solishtirish talab etiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Raqamli ta'lim muhitida biologiyadan laboratoriya mashg'ulotlari dasturiy ta'minotini takomillashtirish metodikasi”** deb nomlanadi. Mazkur bobda raqamli ta'lim muhitida 7-sinf biologiyadan laboratoriya mashg'ulotlari dasturiy ta'minotini takomillashtirish modeli, virtual va raqamli laboratoriyalarni tashkil etish va o'tkazishning metodik shart-sharoitlari, metodikasiga oid uslubiy ishlanmalar va tavsiyalar raqamli laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasi, modeli tadqiq etilgan.

Zoologiyadan laboratoriya mashg'ulotlarida amaliy-yo'naltirilgan ta'lim uchun sharoit yaratish kerak. Aks holda, amaliyotda mustahkamlanmagan nazariya bo'lib qoladi va xotiramiz tubida yo'qoladi. Bunga ta'lim jarayonini tashkil etishning turli shakl va usullarini qo'llash orqali erishish mumkin.

Tadqiqot doirasida 7-sinf biologiya fanidan laboratoriya mashg'ulotlarining dasturiy ta'minotini rivojlantirishning didaktik modeli og'zaki, yozma va vizual bilimlarini manipulyativ raqamlashtirish, kollobarativ rivojlantirishga yo'naltirilgan murakkab biologik tuzilmalarni vizuallashtirish asosida takomillashtirildi (2-rasmga qarang).

Tadqiqotimiz natijasida <https://zoologylab7.wordpress.com/> platformasi yaratib, unga 7-sinf biologiya fanidan virtual laboratoriyalar joylashtirildi. Bu elektron qo'llanma murakkabliklardan holi bo'lib, sodda ko'rinishga ega. Undan o'quvchilar ortiqcha qiyinchiliklarsiz <https://zoologylab7.wordpress.com/> web saytidan olishlari mumkin.



2-rasm. Raqamli ta'lim muhitida 7-sinf biologiya fanidan laboratoriya mashg'ulotlari dasturiy ta'minotini takomillashtirish modeli


Mazkur platformani maktab ta'lim muassasalari o'quvchilarining o'quv dasturiy va texnik vositalar ta'minoti majmiu (tajribalarni kompyuterning imkoniyatlaridan foydalangan holda, virtual o'tkazish) o'quvchiga mustaqil ravishda laboratoriya ishlarini olib borishga imkon beradi.

Quyida biz tomonimizdan ishlab chiqilgan 7-sinf uchun biologiyadan virtual laboratoriyalar bo'yicha ba'zi ilovalarni taqdim etamiz:

Laboratoriya mashg'uloti bo'yicha tayyorlangan android ilova ko'rinishi (3-rasmga qarang).

1. Dasturni faollashtirish oynasi

2. Interaktiv topshiriqlardan namunalar



3-rasm. Laboratoriya mashg'uloti bo'yicha tayyorlangan android ilova ko'rinishi

Shuning uchun o'quvchilarni biologiya fanidan intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan laboratoriya mashg'ulotlarining tashkiliy (bosqichi, usullari) va amaliy jarayonlari (bajarish, natija olish)ning o'quv-metodik ta'minoti o'quv materiallari tuzilmasiga 3D formatli virtual laboratoriyalarni imkoniyatini (tushunchali, vizual-taqdimotli va dinamik o'zgaruvchi) darajalash asosida takomillashtirish metodikasi ishlab chiqildi.

Bugungi kunda biologiya fanini o'rganishda juda ko'p turli xil uskunalar mavjud. Zarur materialni aniqroq namoyish qilish imkonini beruvchi uskunalar laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarning ajralmas qismiga aylanadi. Keng tarqalgan va mavjud uskunalaridan biri raqamli laboratoriyalar hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotimizda 7-sinf biologiya fanidan raqamli laboratoriya Releon bilan ishlash metodikasi tadqiq etiladi. Mazkur laboratoriya Releon Life dasturiy ta'minoti asosida ishlaydi. Shuningdek, mazkur dasturiy vositani istalgancha kompyuter va planshetlarga o'rnatish mumkin.

Releon Life laboratoriya tajribalarini metodik tavsiyalar asosida bajarish hamda o'zining shaxsiy tajribalari asosida o'tkazish imkoniyatini beradi.

Releon Classicning asosiy komponentlari klassik datchiklardir (bitta datchik – bitta ko'rsatma). Datchiklarni alohida yoki bir vaqtning o'zida bir nechtasining ko'rsatkichlaridan foydalanish mumkin. Shunday qilib, ushbu laboratoriyadan turli xil darslarda va mavzular ham foydalanish va mini loyihalarni amalga oshirish mumkin.

Raqamli laboratoriya asbob-uskunalarini universal bo'lib, turli tajribaviy qurilmalarga kiritilishi mumkin, dala sharoitida o'lchovlarni amalga oshiradi, o'quvchilar va o'qituvchilarning vaqtini tejaydi, o'quvchilarni ijodiy bo'lishga

undaydi, ularga imkoniyat yaratadi, o'lov parametrlarini o'zgartirishni osonlashtiradi. Bundan tashqari, videotahlil dasturi video fragmentlardan ma'lumotlarni olish imkonini beradi, bu misol sifatida foydalanish va o'quvchilarning o'zlari tomonidan videoga tushirilgan real hayotiy vaziyatlarni va o'quv va ommabop videolarning parchalarini miqdoriy o'rganish imkonini beradi.

Raqamli ta'lim muhitida biologiyadan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etishning takomillashtirilgan dasturiy ta'minoti o'quvchilarning nazariyani amaliyot bilan bog'lash, amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish va kognitiv faoliyatini faollashtirishga hamda zamonaviy raqamli ta'lim sharoitida sun'iy intellekt tizimlari bilan bog'liq kasblarga yo'naltirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va uning natijalari**" deb nomlanadi. Mazkur bobda tajriba-sinov ishlarini tashkil etishning mazmuni, metodikasi, natijalari va statistik tahlili keltirilgan.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari bir-birini to'ldirib turuvchi uchta bosqichda – *izlanuvchi* (2021-2022-yy.), *shakllantiruvchi* (2022-2023 yy.), *yakuniy-nazorat bosqichlarda* (2023-2024-yy.) o'tkazildi.


Raqamli ta'lim muhitida 7-sinf biologiya ta'limi jarayonida laboratoriya mashg'ulotlarini dasturiy ta'minotini takomillashtirishda biz tomonimizdan quyidagi tartibda pedagogik tajriba o'tkazildi: raqamli ta'lim muhitida biologiyadan laboratoriya mashg'ulotlari dasturiy ta'minotini takomillashtirish nazariyasi va metodikasi muammolarini o'rganish; laboratoriya mashg'ulotlari dasturiy ta'minoti samaradorligiga ta'sir etuvchi pedagogik sharoitlarni aniqlash; biologiyadan laboratoriya mashg'ulotlari dasturiy ta'minoti zamonaviy shakllarini takomillashtirish texnologiyalarini aniqlashtirish; biologiyadan laboratoriya mashg'ulotlari dasturiy ta'minoti e'tiborga olgan holda 7-sinf laboratoriya mashg'ulotlarini loyihalashtirish hamda metodik jihatdan takomillashtirishga oid uslubiy ko'rsatmalar, tavsiyalar ishlab chiqish; 7-sinf laboratoriya mashg'ulotlari samaradorligi darajasini tekshirish va baholash. Quyida tajriba boshi va oxirida tajriba-sinov ishlari o'tkazilgan maktab ta'limi tashkilotlarida tajriba boshidagi natijalar taqdim etiladi (1-jadval va 4-rasmlarga qarang).

1-jadval

Tajriba boshida jami MTT tajriba va nazorat guruhlarida o'quvchilarning laboratoriya mashg'ulotlarini o'zlashtirish mezonlari va daraja ko'rsatkichlari bo'yicha dastlabki natijalari

Daraja ko'rsatkichlari	Mezonlar									
	Reproduktiv		Produktiv		Kognitiv		Kreativ		O'rtacha ko'rsatkich	
	TG	NG	TG	NG	TG	NG	TG	NG	TG	NG
<i>Yuqori daraja</i>	33	33	29	30	32	31	38	38	33	33
<i>Yaxshi daraja</i>	40	42	43	43	40	41	38	40	40	42
<i>O'rta daraja</i>	47	45	48	47	48	48	44	42	47	46
Jami	120	120	120	120	120	120	120	120	120	120

Tajriba boshida barcha respondentarning mezonlar boyicha daraja ko'rsatkichlari




4-rasm. Tajriba boshida barcha respondentarning mezonlar boyicha daraja ko'rsatkichlari

Biz tomonimizdan taqdim etilgan raqamli ta'lim muhitida 7-sinf biologiyasiga oid laboratoriya mashg'ulotlarini "Releon lite" dasturiy paketi vositasida optimallashtirilgan metodikasi; "7-sinf o'quvchilari uchun Zoologiya fanidan laboratoriya mashg'ulotlari uchun elektron o'quv qo'llanma" (DGU 37594-raqamli); <https://biologylab7.wordpress.com/virtual> ta'lim platformasi asosida tajriba yakunida o'quvchilarning laboratoriya mashg'ulotlarini o'zlashtirish mezonlari va daraja ko'rsatkichlari bo'yicha yakuniy natijalar quyida (2-jadval va 5-rasmga qarang) ifodalangan.

2-jadval

Tajriba oxirida jami MTT tajriba va nazorat guruhlarida o'quvchilarning laboratoriya mashg'ulotlarini o'zlashtirish mezonlari va daraja ko'rsatkichlari bo'yicha yakuniy natijalari

Daraja ko'rsatkichlari	Mezonlar									
	Reproduktiv		Produktiv		Kognitiv		Kreativ		O'rtacha ko'rsatkich	
	TG	NG	TG	NG	TG	NG	TG	NG	TG	NG
<i>Yuqori daraja</i>	56	39	54	36	59	43	56	46	56	41
<i>Yaxshi daraja</i>	58	49	60	54	58	51	60	49	59	51
<i>O'rta daraja</i>	6	32	6	30	3	26	4	25	5	28
Jami	120	120	120	120	120	120	120	120	120	120



5-rasm. Tajriba oxirida o'quvchilarining laboratoriya mashg'ulotlarini o'zlashtirish mezonlari va daraja ko'rsatkichlari bo'yicha jami MTT umumiy natijalari

Olingan sonli ma'lumotlarni matematik-statistik tahlil qilishda Styudentning tanlama mezoni, K.Pirsonning muvofiqlik kriteriysi, Laplas funksiyasidan foydalanildi.

Tajriba va nazorat guruhidagi baholash natijalarini mos ravishda 1-2-tanlanmalar deb olsak, quyidagi variatsion qatorlarga ega bo'lamiz (3-jadvaga qarang):

3-jadval

Tajriba va nazorat guruhidagi baholash natijalari tanlanmasi va variatsion qatorlar tahlili

	1-tanlanma				
Tajriba guruhi	X_i	Yuqori	Yaxshi	O'rta	Jami
	n_i	56	59	5	n=120
	2-tanlanma				
Nazorat guruhi	Y_j	Yuqori	Yaxshi	O'rta	Jami
	m_j	41	51	28	m=120

O'zlashtirish darajasini quyidagi formula asosida hisoblaymiz:

$$\bar{X} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^3 n_i X_i = \frac{1}{120} (56 \cdot 5 + 59 \cdot 4 + 5 \cdot 3) = \frac{1}{120} (280 + 236 + 15) = \frac{531}{120} = 4,425 \approx 4,4$$

$$\text{Foizda } \overline{X\%} = \frac{4,425}{3} \cdot 100\% = 147,5\%$$

$$\begin{aligned} \bar{Y} &= \frac{1}{m} \sum_{j=1}^3 n_j Y_j = \frac{1}{120} (41 \cdot 5 + 51 \cdot 4 + 28 \cdot 3) = \frac{1}{120} (205 + 204 + 84) = \frac{493}{120} \\ &= 4,108 \approx 4,1 \end{aligned}$$

$$\text{Foizda } \overline{Y\%} = \frac{4,108}{3} \cdot 100\% = 136,9\%$$

Tajriba guruhidagi o'rtacha o'zlashtirish nazorat guruhidagi o'zlashtirishdan ko'rsatkichidan $(147,5 - 136,9)\% = 10,6\%$ ga yuqori ekan. Bu esa, o'z navbatida, $\frac{147,5\%}{136,9\%} = 1,07$ barobar ortiqligini anglatadi. Demak, tajriba guruhida o'rtacha o'zlashtirish nazorat guruhidagidan yuqori ekan: $\bar{X} > \bar{Y}$.

Har ikki guruh uchun tarqoqlik koeffitsiyentlarni hisoblaymiz. Shu maqsadda dastlab, tanlanma dispersiyalarni hisoblaymiz:

$$\begin{aligned} D_n &= \sum_{i=1}^3 \frac{n_i (x_i - \bar{X})^2}{n - 1} = \frac{56(5 - 4,4)^2 + 59(4 - 4,4)^2 + 5(3 - 4,4)^2}{119} = \\ &= \frac{56 \cdot 0,36 + 59 \cdot 0,16 + 5 \cdot 1,96}{119} = \frac{20,16 + 9,44 + 9,8}{119} = \frac{39,40}{119} \approx 0,33 \\ D_m &= \sum_{j=1}^3 \frac{m_j (y_j - \bar{Y})^2}{m - 1} = \frac{41(5 - 4,1)^2 + 51(4 - 4,1)^2 + 28(3 - 4,1)^2}{119} = \\ &= \frac{41 \cdot 0,81 + 51 \cdot 0,01 + 28 \cdot 1,21}{119} \approx \frac{33,21 + 0,51 + 33,88}{119} = \frac{67,6}{119} \approx 0,57 \end{aligned}$$

Bu natijalardan o'rtacha kvadratik chetlanishlarni topamiz:

$$\tau_n = \sqrt{0,40} \approx 0,58; \tau_m = \sqrt{0,61} \approx 0,75;$$

Bular asosida har ikki guruh uchun variatsiya ko'rsatkichlarini hisoblaymiz:

$$\delta_n = \frac{\tau_n}{\bar{X}} = \frac{0,58}{4,4} \approx 0,13; \delta_m = \frac{\tau_m}{\bar{Y}} = \frac{0,75}{4,1} \approx 0,18;$$

Agar statistik alomatning qiymatdorlik darajasini $\alpha = 0,05$ deb olsak, u holda Laplas funksiyasi jadvalidan statistika uchun kritik nuqta t_{kH} ni

$$\Phi(t_{kH}) = \frac{1 - 2\alpha}{2} = \frac{1 - 2 \cdot 0,05}{2} = \frac{0,90}{2} = 0,45$$

$\Phi(t_{kH}) = 0,45$ ekanligini topamiz. Laplas funksiyasi jadvalidan kritik nuqta $t_{kH} = 1,65$ ekanligini aniqlaymiz. Bundan tajriba guruhining baholashni ishonchli chetlanishlarini topsak:

$$\Delta_n = t_{kH} \cdot \frac{D_n}{\sqrt{n}} = 1,65 \cdot \frac{0,58}{\sqrt{120}} = \frac{1,9494}{10,95} \approx 0,09 \text{ ga teng, nazorat guruhida esa:}$$

$$\Delta_m = t_{kH} \cdot \frac{D_m}{\sqrt{m}} = 1,65 \cdot \frac{0,75}{\sqrt{120}} = \frac{1,2436}{10,95} \approx 0,11 \text{ ga teng.}$$

Topilgan natijalardan tajriba guruhi uchun ishonchli intervalni topsak:

$$\bar{X} - t_{kH} \cdot \frac{D_n}{\sqrt{n}} \leq a_x \leq \bar{X} + t_{kH} \cdot \frac{D_n}{\sqrt{n}} ;$$

$$4,4 - 0,09 \leq a_x \leq 4,4 + 0,09431 \leq a_x \leq 4,49 \text{ ga teng.}$$

Nazorat guruhi uchun ishonchli interval:

$$\bar{Y} - t_{kh} \cdot \frac{D_m}{\sqrt{m}} \leq a_y \leq \bar{Y} + t_{kh} \cdot \frac{D_m}{\sqrt{m}}$$

$$4,1 - 0,11 \leq a_x \leq 4,1 + 0,113,99 \leq a_x \leq 4,21 \text{ ga teng.}$$

Demak, $\alpha=0,05$ qiymatdorlik darajasi bilan aytish mumkinki, tajriba guruhida o'rtacha baho nazorat guruhidagi o'rtacha bahodan yuqori bo'lar ekan.

Ularning geometrik tasviri quyidagicha: yuqoridagi natijalarga asoslanib, tajriba-sinov ishlarining sifat ko'rsatkichlarini hisoblaymiz.

Bizga ma'lum $\bar{X} = 4,4$; $\bar{Y} = 4,1$; $\delta_n = 0,13$; $\delta_m = 0,18$ га теңг.

Bundan o'qitish samaradorligi ko'rsatkichi quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{yc\delta} = \frac{(\bar{X} - \delta_n)}{(\bar{Y} + \delta_m)} = \frac{4,4 - 0,13}{4,1 + 0,18} = \frac{4,27}{4,28} = 0,998 > 0;$$

Bilish darajasini esa, quyidagi formula bilan hisoblaymiz:

$$K_{\delta\delta\delta} = (\bar{X} - \delta_n) - (\bar{Y} - \delta_m) = (4,4 - 0,13) - (4,1 - 0,18) = 4,27 - 3,92 = 0,35 > 0;$$

Olingan natijalardan o'qitish samaradorligining baholash mezoni noldan kattaligi ($K_{yc\delta}=0,998>0$) va bilish darajasining baholash mezoni noldan kattaligini ($K_{\delta\delta\delta}=0,35>0$) ko'rish mumkin. Bundan ma'lumki, tajriba guruhi ko'rsatkichlari nazorat guruhidagidan yuqori ekan.

Yuqoridagi hisoblashlardan ma'lum bo'ldiki, o'qitish samaradorligining baholash mezoni va bilish darajasining baholash mezoni noldan katta ekan. Bundan shuni aytish mumkinki, tajriba guruhi ko'rsatkichlari nazorat guruhidagidan yuqori ekan. Ushbu o'zlashtirish ko'rsatkichlarini foizlarda hisoblaymiz:

$$P = \frac{\bar{X}}{3} \cdot 100\% - \frac{\bar{Y}}{3} \cdot 100\% = \frac{4,425}{3} \cdot 100\% - \frac{4,108}{3} \cdot 100\% = \frac{31,7}{3} = 10,56\% \approx 10,6\%$$

Bundan shuni xulosa qilib aytish mumkinki, tajriba guruhining ko'rsatkichi nazorat guruhinikiga nisbatan 10,6% ga oshganligini ko'rish mumkin.

Tadqiqot davomida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari 7-sinf biologiya fani bo'yicha raqamli ta'lim muhitida laboratoriya mashg'ulotlari takomillashtirilgan dasturiy ta'minoti hamda zamonaviy metodika asosida olib borilgan laboratoriya mashg'ulotlari samarali ekanligidan dalolat berdi. MTT muassasalarida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik statistik jihatdan isbotlandi.

XULOSA

“7-sinf biologiya kursida raqamli muhitda amaliy mashg'ulotlar dasturiy bazasini rivojlantirish” yo'nalishida amalga oshirilgan ilmiy izlanish natijalariga muvofiq quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Zamonaviy davrda biologik ta'limning jadal rivojlanishi raqamli innovatsiyalarning jamiyat hayotiga keng kirib kelishi bilan chambarchas bog'liqdir. Ta'limni raqamlashtirish sohasidagi hozirgi tendensiyalar biologiya

fanidan amaliy ishlarning dasturiy platformasini raqamli muhitda rivojlantirishning didaktik, psixologik hamda uslubiy salohiyatini virtual laboratoriya texnologiyalari orqali ta'lim oluvchilarning amaliy ko'nikmalarini ustun qo'yish asosida belgilash, elektron ta'lim vositalarini qo'llash orqali o'quv jarayoni natijadorligini oshirish imkoniyatini yaratadi.

2. 7-sinf biologiya fanidan laboratoriya mashg'ulotlarining dasturiy ta'minotini rivojlantirishning didaktik modeli og'zaki, yozma va vizual bilimlarini manipulyativ raqamlashtirish, kollobarativ rivojlantirishga yo'naltirilgan murakkab biologik tuzilmalarni vizuallashtirish asosida quyidagi mezonlarga muvofiq turkumlandi: ta'lim oluvchilar faoliyatini tashkillashtirish usuli bo'yicha (umumiy, jamoaviy, yakka tartibda); tarkibiy yo'nalishi bo'yicha (botanika, zoologiya, anatomiya, umumiy biologiya sohasidagi amaliy ishlar); ta'limiy vazifasiga ko'ra (izlanish, ko'rgazmali), texnologik bazasiga ko'ra (virtual, raqamli) hamda mazmun jihatdan takomillashtirildi.

3. Biologiyadan laboratoriya mashg'ulotlari dasturiy ta'minotini takomillashtirish samaradorligi raqamli laboratoriya effektlari Quiz, Veb-quest vositalari yordamida kutilgan va haqiqiy natijalarni baholash, refleksiya jarayonining obyektivligini ta'limiy platformalar vositasida aniqlash, virtual laboratoriya tizimlari va simulyatsion dasturlar (uch o'lchamli modellashtirish, virtual anatomik tahlil), "Releon lite" dasturiy kompleksi yordamida modernizatsiya qilish ta'lim oluvchilarning fan bo'yicha motivatsiyasini kuchaytirish, zamonaviy laboratoriya texnologiyalari bilan ishlash malakalarini hamda kasbiy layoqatlarini rivojlantirishga zamin yaratadi.

4. Hozirgi kunda raqamli laboratoriya tizimlari tabiiy fanlar laboratoriyalarining yangi avlodi sifatida zamonaviy ta'lim muassasalari uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu niqtai nazardan, raqamli laboratoriya platformalari ta'lim oluvchilarning bilimlarni puxta egallashi, innovatsion fikrlash qobiliyatini rivojlantirishi, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiyalashi va o'zida interfaol imkoniyatlar, texnologik integratsiyalanganlik, amaliyotga yo'naltirilganlik xossalarni namoyon etish orqali ta'lim samaradorligini orttirishi aniqlashtirildi.

5. Biologiya fanidan amaliy mashg'ulotlarning dasturiy infratuzilmasi raqamli muhitda biologik tajribalar bajarishda hodisa va jarayonlarni dinamik vizualizatsiya qilish hamda grafik tasvirlash, kompyuter simulyatsiyalari orqali boshqarish; biologiyadan laboratoriya mashg'ulotlari dasturiy ta'minotining didaktik imkoniyatlari virtual makondagi pedagogik faoliyat mobilligi va nazariy bilimlarni amaliy harakatlar traektoriyasiga individuallashtirilgan vektorli yo'naltirish natijalari avtonomligini faktorli tahlil qilish asosida rivojlantirildi.

6. Biologiya bo'yicha amaliy ishlarning dasturiy bazasini raqamli muhitda fanlararo aloqadorlik asosida integratsiyalash orqali ta'lim oluvchilarning predmetga oid, ilmiy-izlanish hamda metafanli layoqatlarini rivojlantirish, biologiyadan laboratoriya mashg'ulotlari dasturiy ta'minotini individuallashtirish mobil ilovalar, og'zaki va vizual ko'rsatmalar va ta'lim subyektlari ijodiy hamkorligini intensiv laboratoriyaviy modellashtirish asosida takomillashtirildi.

TAVSIYALAR

Yuqoridagi ilmiy natijalar asosida biologiya fanidan amaliy mashg'ulotlarning didaktik bazasini raqamli muhitda rivojlantirish bo'yicha quyidagi amaliy takliflar ilgari surildi:

1. Ta'lim oluvchilarning biologiya bo'yicha amaliy ishlar dasturiy bazasini rivojlantirishda virtual hamda raqamli laboratoriya resurslarining ulushini kengaytirish, boshqaruv, monitoring va baholash jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, innovatsion pedagogik yondashuvlar, interaktiv usullar va o'quvchi faoliyatining integrativ birlashuvini ta'minlash imkonini beradi.

2. Biologik hodisa va jarayonlarni o'rganishda ta'lim oluvchilarga raqamli muhitda masofaviy ta'lim olish imkoniyatini yaratuvchi dasturiy mahsulotlar – multimedia vositalar, animatsion dasturlar, virtual hamda raqamli laboratoriya tizimlari, ta'limiy videomateriallar, elektron o'quv qo'llanmalarni ishlab chiqish va biologiya ta'limi amaliyotiga joriy etishni taqozo etadi.

3. Biologiya fanidan amaliy mashg'ulotlar dasturiy platformasini raqamli muhitda takomillashtirishning immersiv texnologiyalar bilan uyg'unlashgan innovatsion avlod resurslarini yaratish hamda ta'lim oluvchilarni zamonaviy biotexnologik kasblarga yo'naltirish salohiyatini oshirishni muntazam rivojlantirishga asos yaratadi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ
СТЕПЕНЕЙ PhD.03/30.12.2019.В.91.01 ПРИ ГУЛИСТАНСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ШАХРИСАБЗСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
ИНСТИТУТ**

ТОШМАНОВ ИКРОМ ДЖУМАНОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЛАБОРАТОРНЫХ
ЗАНЯТИЙ ПО БИОЛОГИИ В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ
(НА ПРИМЕРЕ БИОЛОГИИ 7 КЛАССА)**

13.00.02 – Теория и методика обучения и воспитания (естественные науки)

**Автореферат диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

Гулистан – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № Б2023.1.PhD/Ped4568.

Диссертация выполнена в Шахрисабзском государственном педагогическом институте.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на веб-странице ученого совета (www.guldu.uz), информационно-образовательный портал "ZiyoNET" (www.ziynet.uz) размещены по адресам.

Научный руководитель: Эргашева Гулрухсор Сурхонидинова
доктор педагогических наук (DSc), профессор

Официальные оппоненты: Эргашева Малохат Турсуновна
доктор педагогических наук (DSc), профессор

Хушвакова Хуснобод Салиевна
доктор педагогических наук (DSc), доцент

Ведущая организация: Чирчикский государственный педагогический университет

Защита диссертации состоится на разовом заседании Ученого совета PhD.03/30.12.2019.B.91.01 при Гулистанском государственном университете «15» 10 2025 года в 14⁰⁰ (адрес: 120100, Сырдарьинская область, город Гулистан, 4 квартал. Тел.: (+99867) 225-39-25, факс: (+99867) 225-39-25; e-mail: glsuinfo.bio@mail.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Гулистанского государственного университета (зарегистрирована за № 93). Адрес: 120100, Сырдарьинская область, город Гулистан, 4-квартал. Тел.: (+99867) 225-39-25.

Автореферат диссертации разослан « 28 » 09 2025 года.
(реестр протокола рассылки № 3 от « 28 » 09 2025 года).

 А. Пазиллов
Председатель Научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.б.н., профессор

Ф.П. Гаибназарова
Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.ф.н. (PhD), доцент

Ж.Х. Каршибаев
Председатель научного семинара при
Научном совете по присуждению
ученых степеней, д.б.н., доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Высокий потенциал развития современного общества, стремительный рост цифровых технологий в жизни человека, возрастающая потребность в цифровых образовательных ресурсах требуют от системы образования повышения биологической грамотности подрастающего поколения на основе развития навыков XXI века. В связи с этими изменениями все более важным становится совершенствование программного обеспечения для лабораторных занятий по биологии за счет критического использования цифровых технологий и контента, объединения творческого опыта с практикой, создания открытых образовательных ресурсов и повышения иммерсивности образовательного процесса.

Во всем мире проводятся обширные исследования с целью развития у учащихся цифровых навыков, ИКТ компетентности, информационной и медийной грамотности, а также организации программных мероприятий на основе принципов цифровой педагогики в преподавании биологии. В частности, это требует формирования естественнонаучной картины мира в сознании студентов, широкого использования цифровых ресурсов в лабораторных занятиях, совершенствования методических возможностей научного изучения биологических объектов, расширения возможностей студентов по изучению внутреннего строения биологических объектов с использованием иммерсивных технологий.

В нашей стране реализуются комплексные реформы в сферах цифровизации системы образования, «популяризации информационных технологий среди молодежи, а также развития навыков использования цифровых технологий у всех слоев населения»³, развития химии и биологии, повышения качества образования и научной продуктивности в этих областях. «В то же время стоит отметить, что качество преподавания химии и биологии в средних школах не отвечает современным требованиям, учебно-методическое и лабораторное обеспечение морально устарело»⁴, существует необходимость в обеспечении современных лабораторий, цифровых технологических средств и ресурсов. В связи с этим важно актуализировать и повышать эффективность школьного биологического образования с помощью цифровых ресурсов: flash-анимаций, интерактивных изображений и схем, видеороликов и иллюстраций.

Данная диссертация в определенной степени послужит совершенствованию механизмов реализации задач, изложенных в Законе Республики Узбекистан № ЗРУ-637 «Об образовании» от 23 сентября 2020 года, Указе Президента Республики Узбекистан № УП-60 «О Стратегии

³ Указ Президента Республики Узбекистан № УП-6079 «Об утверждении Стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030» и мерах по ее эффективной реализации» от 5 октября 2020 года: <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>

⁴ Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-4805 «О мерах по повышению качества непрерывного образования и эффективности науки по химии и биологии» от 12 августа 2020 года: <https://lex.uz/docs/-4945470>

развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года, Постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-4805 «О мерах по повышению качества непрерывного образования и эффективности науки в области биологии и биологии» от 12 августа 2020 года и других нормативно-правовых документах, касающихся этой деятельности.

Соответствие исследования приоритетам развития науки и техники республики. Данная научно-исследовательская работа выполнена в рамках приоритетного направления развития науки и технологии республики I. «Формирование системы инновационных идей в социально-правовом, экономическом, культурно-духовном и образовательном развитии информационного общества и демократического государства и пути их реализации».

Степень изученности проблемы. Внедрение цифровых технологий в систему образования нашей республики и совершенствования программных средств исследовали А.А.Абдукодилов, Б.З.Тураев, У.Ш.Бегимкулов; в области методики преподавания биологии, расширения методических возможностей организации уроков на основе педагогических и информационных технологий и цифровых средств исследования проводили: Ж.О.Толипова, О.Мавлонов, И.Азимов, Г.С.Эргашева, У.Б.Баходирова, М.Н.Ибодова, С.Нажимова, Н.Ж.Тошманов, Л.М.Караханова, Ш.Б.Хасанова.

В странах СНГ возможности повышения эффективности образования по биологии в цифровой образовательной среде исследовали: А.В.Алдусин, Т.М.Береснева, Н.Б.Борисова, Е.А.Синдеева, Е.Е.Петров.

Исследования современных форм и средств организации лабораторных занятий, возможностей использования виртуальных лабораторий проводили зарубежные ученые: К.А.Gamage, С.L.Craig, С.G.Friebs, V.Zafeiropoulos, D.Kalles, M.Irsyad, J.Keil, P.H.Myburgh и др. Однако проблема совершенствования лабораторных занятий по биологии в 7 классе в условиях цифрового обучения как отдельный объект исследования не рассматривалась.

